

O‘ZBEKISTONDA YO‘LGA QO‘YILGAN “ONA UYI” LOYIHASI HAQIDA

Samarqand Davlat universitetining Psixologiya va

Ijtimoiy- siyosiy fanlar fakulteti 3-bosqich

*talabasi **Qahramonova Navroza***

navrozaqahramonova@gmail.com

Ilmiy rahbar: Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrası

*dotsenti **Yusupov Rahimjon Karimovich***

Annotasiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda yo‘lga qo‘yilgan "Ona uyi" qo‘llab-quvvatlashning maskani sifatida o‘rganiladi. Xalqaro tajribani keng yoyish uchun tuzilgan ijtimoiy himoya loyihasining maqsadi, vazifalari va uning Respublikaga ta’siri, dastlabki holda tahlil qilinadi. Ushbu maqolada O‘zbekistonda ayollar uchun yordam shaklining yangi tajribasi namuna sifatida tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Ona uyi. Ijtimoiy yetimlik. Oilani huquqiy qo‘llab quvvatlash. Maskan sifatida O‘zbekistondagi xayriya loyihasi. Ijtimoiy qo‘llab quvvatlash, og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan ayollar uchun ijtimoiy yordam.

ONA UYI XALQARO FONDI (MHIF) Qozog‘iston “ANA UYI” jamoat fondining xalqaro yo‘nalishi hisoblanadi. 10 yil oldin boshlangan tashvish va qo‘llab-quvvatlash tarixi global MHIF tashabbusini ilhomlantirdi. Maqsad ijtimoiy yetimlikni kamaytirish va butun dunyo bo‘ylab mehribonlik uylaridagi bolalar sonini kamaytirishdir.

O‘zbekistonda 2024-yil 4-aprelda MHIF filiali davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi. Ayni paytda “Ona uyi” resurs markazining navbatdagi tashkilotlarining ochilishi va tarbiyalanuvchilarini qabul qilishga tayyorgarlik tadbirlari ko‘rilmoqda.

Xususan, bunday tadbirlarning birinchisi, 2024-yil yanvar oyida Toshkentda qozog‘istonlik tadbirkorlar va “Mama’s House” jamoasining yuz nafar O‘zbekistonlik ishbilarmonlar bilan uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Unda Markaziy Osiyoni yetim bolalarsiz birinchi mintaqaga aylantirish maqsadi muhokama qilindi. Shu tariqa, loyihani O‘zbekistonda amalga oshirish qozoq va o‘zbekistonlik ishbilarmonlar va xayriyachilarning birgalikdagi sa’y-harakatlari tufayli mumkin bo‘ldi¹.

2025-yil 1-fevraldan boshlab og‘ir hayotiy vaziyatda va yaqin qarindoshlari ko‘magisiz qolganligi natijasida farzandini tarbiyalashdan voz kechmoqchi bo‘lgan onalar, shu jumladan, homilador ayollar (keyingi o‘rinlarda og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan onalar) uchun bolalar uylarida "Ona uyi" xizmati yo‘lga qo‘yilgan.

¹ ONA UYI XALQARO FONDI (MHIF) Qozog‘iston “ANA UYI” // <http://https://dom-mamy.kz/ru/2024/07/26/dom-mamy-v-uzbekistane>

Avvalambor ta’kidlash joizki, ushbu loyiha Qozog‘istondagi “Ana Uyi” (Ona uyi) loyihasi tajribasi asosida tashkil etildi. Qo‘shni davlat tadbirkorlari tomonidan 2013 yilda ishga tushirilgan bu loyiha Markaziy Osiyoda ijtimoiy yetimlik muammosini hal etishni maqsad qilgan². O‘zbekistonda ham bu loyiha tajriba sifatida Toshkent shahri va Samarqand viloyatida ishga tushirilib, samarasini ko‘rsatdi. Mazkur hududlarda ochilgan "Ona uyi"da o‘nlab ayol va bolalarga yordam berildi. Natijada 60 ta bola onasi bilan qoldi(vaholanki, ular tashlab ketilishi ham mumkin edi), 45 ayol esa inqirozli vaziyatda, xususan, oiladagi zo‘ravonlik holatida himoyaga olindi. Ana shu natijalarimizning o‘ziyoq loyihani kengaytirish zarurati borligini ko‘rsatdi. 2026-yilgacha boshqa hududlarda ham "Ona uyi" markazlarini ochish rejalashtirilgan.

Og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan ayollar jamiyatimizning eng zaif va yordamga muhtoj qatlamlaridan biri. Ular ko‘pincha oilaviy zo‘ravonlik, ishsizlik, moddiy muammolar, psixologik jarohat yoki boshpanasizlik kabi xatarlar bilan yuzmayuz keladi. Shunday holatda: og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan onalar va ularning bolalari (4 yoshga to‘lmagan) 1 yilgacha bo‘lgan muddatga ijtimoiy shartnoma asosida vaqtincha boshpana bilan ta‘minlanadi.

Zero, hayotda hamma narsa bo‘ladi. Kutilmagan vaziyatlar insonni turli holatga solishi mumkin. Ba‘zan bunday vaziyatdan chiqib ketish uchun kishiga birgina yordam qo‘li, kichik turtki kifoya.

Yurtimizda o‘tgan yili Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan ilk bor ishga tushirilgan "Ona uyi" loyihasidan maqsad ham shu - og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan ayollarni qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy yetimlikning oldini olish. Qisqa muddatda natija ko‘rsatgan mazkur loyiha bugun mamlakatimizning eng yirik tadbirkorlarini qiziqitirib, hayrli tashabbus atrofida birlashtirmoqda.

Amalga oshirilayotgan loyihaga ko‘ra, kelgusida hududlarda maxsus markazlar tashkil etiladi. Bu yerda ayollar va 4 yoshgacha bo‘lgan farzandlariga himoya, boshpana, ijtimoiy, huquqiy hamda psixologik yordam ko‘rsatiladi.

Bu loyiha qiyin ahvoldagi ayollar va bolalarga yordam berish bilan birga oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, shuningdek, ijtimoiy yetimlikni oldini olishga qaratilgan. Chunki, maqsadimiz har bir bola har qanday holatda ham o‘z onasi, oilasi bilan qolishi, sog‘lom muhitda voyaga yetishiga ko‘maklashishdan iborat.

"Ona uyi"da o‘nlab ayol va bolalarga yordam berildi.

Ayni chog‘da, har bir "Ona uyi" 10-12 o‘ringa mo‘ljallangan. Odatda ayollar "Ona uyi" da 6 oygacha qolishi mumkin, ammo bu muddatdan so‘ng ahvoli individual ko‘rib chiqilishiga mo‘ljallangan. Muassasada ayollar sog‘ligini tiklashi, davolanishi uchun reabilitatsiya xizmati ko‘rsatiladi. Shundan so‘ng, ayollarning qiziqishi va imkoniyatidan kelib chiqib, ta‘lim va mehnatga yo‘naltirish dasturlari qo‘llaniladi.

² Тошматова Ирода. “Она уйи” тadbirkorларни бирлаштираётган ижтимоий лойиҳа//Янги Ўзбекистон 2025 йил 14 февраль, 32-сон.

Vaqt o'tishi bilan kimlardir birgalikda ijaraga uy olib, o'rgangan kasbi asosida ish boshlaydi, boshqalari oilasi bilan yarashtirilishi ham ko'zda tutiladi.

"Ona uyi" loyihasini kengaytirishda Prezident huzuridagi Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha jamoatchilik kengashi a'zolari faollik ko'rsatayotgani, ayniqsa, quvonarli. Davlatimiz rahbarining o'tgan yillardagi tegishli farmonlari bilan mazkur kengash tarkibi 35 kishidan 49 nafargacha kengaytirilgan. Shundan 46 nafari barcha sohalarda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar.

Ayni paytda O'zbekiston poytaxtida ikkita "Onalar uyi" ("Ona uyi") eshiklari ochildi. Resurs markazlarining ishga tushirilishi Fondning Markaziy Osiyodagi ta'sirini kengaytirish va oilalar va bolalarni samarali qo'llab-quvvatlash strategiyasining bir qismidir. Ayni paytda ikki uyda 8 nafar bola, 7 nafar ona bo'lib, ulardan 2 nafari homilador.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, bu kabi yangi resurs markazlarining ochilishi mahalliy qozoq ishbilarmonlari va o'zbekistonlik xayriyachilarning ko'magi tufayli bo'ldi. Bugungi kunda 4228 nafar yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar mehribonlik uylarida ota-onasini kutmoqda. Ko'zlangan maqsad, yana bir farzandning hayotini yanada go'zal va baxtli qilishdir³.

Birinchi "Ona Uyi" ijtimoiy markazi 8-10 nafar yosh bolali ayolni qabul qilishi mumkin. Ikkinchi bosqichda Ona uyi natijalari asosida hamda O'zbekistonning ma'lum bir mintaqasi ehtiyojlariga qarab loyihani mamlakat bo'ylab kengaytirish belgilangan.

Ona Uyi markazi qiyin ijtimoiy vaziyat va turli salbiy holatlarda onalarga bolalarini o'zlari tarbiyalash imkoniyatini berish orqali yordam beradi. Bu yerda ularga ma'naviy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatiladi hamda ushbu yordam barcha zarur narsalar, xususan, uy-joy, oziq-ovqat, kiyim-kechak, shuningdek, ayol va bola uchun tibbiy yordamni o'z ichiga oladi.

Shu bilan birgalikda, Ona Uyi loyihasi doirasida markazda yashovchi onalarni kasbiy tayyorlash dasturi amalga oshiriladi. Kelgusida Ona uylarida tikuvchilik ustaxonalarini ochish, onalarga turli mutaxassisliklar bo'yicha ta'lim berish rejalashtirilgan.

Natijada, barcha ibratli tadbirlar tufayli Ona Uyi markazida bo'lgan vaqt davomida ayollar ijtimoiylashishi, professional kasbga ega bo'lishi hamda o'zlari va farzandlarini ta'minlash maqsadida kelajak uchun mablag' topishlari mumkin bo'ladi.

Masalan, O'zbekiston davlati va ishbilarmon doiralari yuqori samaradorlikni ko'rsatib faoliyat yuritishmoqda. 2024-yilda bir necha oy ichida hukumat bilan

³<http://https://forbes.kz/articles/tsentralnaya-aziya-bez-sirot-sovmestnyy-proekt-biznesmenov-kazahstana-i-uzbekistana-467afe>

memorandum imzolandi, zarur ruxsatnomalar berildi. Shu bois, Toshkent va Samarqandda uchta “Ona uyi” markazlari ochildi. Loyiha bo’yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Milliy ijtimoiy himoya agentligi va mahalliy tadbirkorlar ko‘magida bir qator ishlar ham amalga oshirilmoqda. Kelgusida Qozog‘istonlik mutaxassislar o‘zbek mutaxassislarini tayyorlaydilar, bu esa ko‘lamni kengaytirishga zamin yaratishini ta’minlaydi. Bugungi kungacha Qozog‘iston tajribasi 12 yil davomida ajoyib natijalarni ko‘rsatdi: mamlakatda yetimlar soni uch barobar, go‘daklarni tashlab ketish 70 foizga kamaydi. O‘tgan yillar davomida qozog‘istonlik ishbilarmonlar loyihaga qariyb 17,5 million dollar mablag‘ ajratgan edilar.

Manbalarda keltirilgan ushbu uchrashuvlardagi ma’lumotlardan bilish mumkinki, o‘zbekistonlik xayriyachilar ham turli shaharlarda, jumladan, Buxoro va Andijonda yettita yangi “Ona uyi” ochishga qaror qilib, bunday uylarning umumiy sonini o‘ntaga yetkazishmoqchilar.

O‘zbekistonlik ishbilarmonlar tomonidan qo‘llab-quvvatlangani va pilot loyihaning muvaffaqiyati sabab, Yangi O‘zbekiston ehtiyojlarini to‘liq qondirish uchun tashabbusni butun mamlakat bo‘ylab kengaytirish uchun kuchli turtki bo‘ldi. Loyihaga Qirg‘iziston ham faol qiziqish bildirmoqda va yaqin kelajakda “Onalar uyi” u yerda ham ish boshlashi kutilmoqda.

Loyihamiz biznes va hukumatning birgalikdagi sa’y-harakatlari muhim ijtimoiy muammolarni qanday hal qilishini ko‘rsatadi. O‘zbekiston bizning asosiy hamkorimiz va biz mahalliy tadbirkorlar tashabbusni rivojlantirishga katta hissa qo‘shishiga ishonamiz. Maqsadimiz Markaziy Osiyoni yetim bolalarsiz birinchi mintaqaga aylantirish. Keyinchalik esa – barcha turkiy davlatlar, – dedi loyiha tashabbuskori Oydin Rahimboyev⁴.

2026 yilga qadar hududlarda yana 7 ta “Ona uyi” markazlarini ochish rejalashtirilgan: masalan, 2025 yili davomida Andijon, Buxoro, Urganch shaharlarida, 2026 yil mobaynida Termiz, Navoiy, Jizzax, Gulistonda. Barpo etilgan bu markazlarda, yani har bir uy quyidagilarni taqdim etadi:

- Ayollar va bolalar uchun vaqtinchalik boshpana.
- Yuridik va psixologik yordam.
- Ta’lim va mehnatga yo‘naltirish dasturlari.

Shunday qilib, “Ona Uyi” taqdimoti biznes va hukumat o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishda muhim bosqich bo‘ldi. O‘zbekistonda “Ona uyi” xayriya loyihasi taqdimoti o‘tkazildi⁵.

⁴ Центральная Азия без сирот: совместный проект бизнесменов Казахстана и Узбекистана // <https://forbes.kz/articles/tsentralnaya-aziya-bez-sirot-sovmestnyy-proekt->

⁵ O‘zbekistonda “Ona uyi” xayriya loyihasi taqdimoti o‘tkazildi//<https://kun.uz/01959544?q=%2Fuz%2F01959544>

Shu bois, "Ona uyi" loyihasining jamiyatga ta'siri ro'y berishi yanada kuchayadi. Undan so'ng, ushbu loyiha O'zbekiston jamiyatining ijtimoiy barqarorligini ta'minlashga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ham ko'proq bo'laveradi. Ijtimoiy himoyaning natijalari esa quyidagicha bo'lish kutiladi:

Birinchidan, jamiyatimizda ijtimoiy yetimlik kamayadi – bolalar mehribonlik uylariga topshirilmay, o'z onalari bag'rida tarbiyalanishi seziladi.

Ikkinchidan, ilmiy tadqiqotlarga ko'ra ayollar mustaqil hayot kechirishga tayyorlanishi ro'y beradi – ularning yangi kasb-hunar egallashi iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lishga ko'mak berilishi amalga oshiriladi.

Uchinchidan, oilalar mustahkamlanib boraveradi – onalarga ruhiy, huquqiy va moddiy yordam ko'rsatilishi, oilaviy nizolarning oldini olishga yordam berishi amalda ajrimlar soni kamayishi isbotlanmoqda.

To'rtinchidan, jamiyatda mehr-oqibat va hamjihatlik muhitini mustahkamlashi – ijtimoiy muammolarga qarshi kurashishda davlat va nodavlat tashkilotlarning o'zaro hamkorligi mustahkamlanaveradi.

Demak, amaliy ishlar natijasida, O'zbekistonda kelajak istiqbollari va tavsiyalari shakllantiriladi. Loyihaning samaradorligini oshirish uchun quyidagi tavsiyalar berilishi kutilmoqda:

Joriy yil davomida markazlar sonini oshirish – O'zbekistonning turli hududlarida bunday markazlarni tashkil etish davom ettiriladi.

Ayollarning mehnat bozoriga kirishiga ko'maklashish – kasb-hunarga o'qitish tizimini kengaytirish va ishga joylashishda qo'llab-quvvatlash ro'y beradi.

Davlat va xususiy sektor hamkorligini kengaytirish – korxonalar bilan hamkorlik qilib, ayollarni doimiy ish o'rinlari bilan ta'minlash amalga oshirilib boradi.

Shunday qilib, "Ona uyi" loyihasi O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimining muhim qismi sifatida ayollar va bolalarning hayot sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu tashabbus orqali ijtimoiy yetimlikning oldini olish, ayollarning iqtisodiy mustaqilligini oshirish va jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga erishilmoqda. Kelgusida ushbu loyihani yanada kengaytirish va uning samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etaveradi. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish – xorijiy tajribalarni o'rganish va ilg'or amaliyotlarni tatbiq etish jarayoni qo'llab-quvvatlantirilaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Negmatov I. Ijtimoiy ish tarixi va nazariyasi. Darslik. - Samarqand: SamDU Tahririy nashriyoti, 2024. – 636 bet.
2. Yusupov R.K. Ijtimoiy ishga kirish. O'quv qo'llanma. – Samarqand : SamDU nashri, 2020. – 264 bet.

3. Тошматова Ирода. “Она уйи” тадбиркорларни бирлаштираётган ижтимоий лойиҳа//Янги Ўзбекистон 2025 йил 14 февраль, 32-сон.
4. О‘zbekistonda “Ona uyi” xayriya loyihasi taqdimoti o‘tkazildi//
<https://kun.uz/01959544?q=%2Fuz%2F01959544>
5. Центральная Азия без сирот: совместный проект бизнесменов Казахстана и Узбекистана//<https://forbes.kz/articles/tsentralnaya-aziya-bez-sirot-sovmestnyy->
6. ONA UYI XALQARO FONDI (MHIF) Qozog‘iston “ANA UYI” // <http://dom-mamy.kz/ru/2024/07/26/dom-mamy-v-uzbekistane>
7. Центральная Азия без сирот: совместный проект бизнесменов Казахстана и Узбекистана // <https://forbes.kz/articles/tsentralnaya-aziya-bez-sirot-sovmestnyy-proekt->
8. О‘zbekistonda “Ona uyi” xayriya loyihasi taqdimoti o‘tkazildi//
<https://kun.uz/01959544?q=%2Fuz%2F01959544>